



Psychological factors of the influence of the family environment on the formation of social phobia in youth

Asolat NASRULLAYEVA¹

Scientific Research Institute "Family and Gender"

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 25 May 2024
Available online
15 June 2024

Keywords:

family,
values,
social phobia,
interpersonal relationships,
institution,
family environment.

ABSTRACT

The influence of the family on the formation of social phobia and various aspects of interaction within the family are reflected in the attitude of young people to family life. In addition, the importance of parents in raising a child and their role in this is determined. The formation of various personal qualities of the child, including the role that defines the characteristics of interpersonal relationships, becomes important. The article analyzes the literature on the psychological factors of the influence of the family environment on the formation of social phobia in young people.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp22-26>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yoshlarda ijtimoiy fobiya shakllanishiga oilaviy muhit ta'sirining psixologik omillari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

oila,
qadriyatlar,
turmush ijtimoiy fobiya,
shaxslararo munosabatlar,
ustanovka,
oilaviy muhit.

Ijtimoiy fobiya shakllanishiga oilaning ta'siri va oila ichidagi o'zaro munosabatlarning turli jihatlarini yoshlarni oilaviy hayotga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ota-onaning bola tarbiyasidagi ahamiyati va ularning bolaning turli shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdagi roli, shu jumladan shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini belgilaydigan roli ahamiyatga ega bo'ladi. Maqolada yoshlarda ijtimoiy fobiya shakllanishiga oilaviy muhit ta'sirining psixologik omillari borasida adabiyotlar tahlili amalga oshiriladi.

¹ PhD student, Scientific Research Institute "Family and Gender". E-mail: asolat.nasrullayeva@icloud.com

Психологические факторы влияния семейной среды на формирование социальнoфобии у молодежи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

семья,
ценности,
социофобия,
межличностные
отношения,
институт,
семейная среда.

Влияние семьи на формирование социофобии и различные аспекты взаимодействия внутри семьи отражаются на отношении молодежи к семейной жизни. Кроме того, определяется значение родителей в воспитании ребенка и их роль в этом. важным становится формирование различных личностных качеств ребенка, в том числе роли, определяющей особенности межличностных отношений. В статье анализируется литература о психологических факторах влияния семейной среды на формирование социофобии у молодежи.

KIRISH

Bolalik davrida ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ota-onalar tomonidan bolaga ma'lum bir fikrni yetkazish, bu uning shaxsiyatini shakllantirish, rivojlanish uchun psixologik makonni yaratishi zarur. Qiyin vaziyatlarda o'zini tutish, hissiy kontekstni va tegishli hissiy munosabatni tan olish ijtimoiy fobiya shakllanishiga hissa qo'shishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin.

Juda kichik bolalar, ko'rsatmalar va taqiqlarni hali tushunmaydi, xavf borligini sezmagani uchun ham hech narsadan tap tortmaydi. Doimiy ravishda qo'rqitishni qurol qilib olsak, biz bolalarimizni qo'rqoq, ishonchsiz yoki emotsiyaga beriluvchan qilib tarbiyalaymiz. Agar biz farzandimizda o'ziga ishonchi past inson paydo bo'lishini istamasak, balansni ushlashni bilishimiz kerak. Ota-onalarimiz va oldingi avlodlarimizdan meros bo'lib qolgan odat bu qo'rqitish usulidir. Afsuski bu usul bolaning psixikasiga va kelgusi hayotiga qanchalik zararli ekanligini ko'pchilik bilmaydi. Bolalar bezorilik qilishi agressiyasi ortida ma'lum psixologik sabablar ham bor. Qo'rqitishdan oldin boladagi injiqlik sabablarini o'rganish kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mashhur psixoanaliz asoschisi Z. Freydning fikriga ko'ra, qo'rquv va fobiyalarning paydo bo'lishining asosi, bolalik davrida olingan psixologik jarohatlardir. (Ego) tomonidan psixologik himoya tufayli ongsiz impulslarni (Id) amalga oshira olmaslik fobiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Z. Freyd fobiyalar qulay sharoitlarda yo'qolishi va yomonlashishi va rivojlanishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan. Psixoanalizning yana bir vakili A.Adler fobiyalar bolalik davridagi pastlik kompleksi natijasida paydo bo'ladi, deb hisoblagan. U fobiyalarning paydo bo'lishida yetakchi rolni oila ichidagi munosabatlarga yuklagan. Neofreydizm vakillari (K. Horni, H.S. Sallivan,) fobiyalarning sababi ona va bola o'rtasidagi noto'g'ri munosabatda, xususan, onalik mehri va mehrining yo'qligida deb hisoblashgan.

Qo'rquv yordamida biz bola e'tiborini ma'lum bir narsaga qaratishga harakat qilamiz va bu bolaning psixik holatiga zararlimi yoki yo'qmi o'ylab ham ko'rmaymiz. Qo'rquvlarning aksariyati ma'lum darajada yosh xususiyatlarga bog'liq va vaqtinchalik xususan, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ekologik, kosmik, yuqumli. Qo'rquv bugungi kunda insonning mavjudligi bilan bir xil haqiqatga aylandi. Odamlar nimadan

qo'rqishadi? Albatta, har bir inson uchun qo'rquvni boshdan kechirishning o'ziga xos sabablari cheksiz xilma-xil bo'lishi mumkin. Qo'rquv – bizni xavfli signal bilan ta'minlaydigan hissiyotdir. Bunda biz darhol o'zimizni ehtiyot qilish rejimini yoqamiz. Shu sabab hissiy intellekt normal rivojlanishi uchun tarbiya nuqtai nazaridan, qo'rquvni butunlay istisno qilish kerak emas. Qo'rquvni to'g'ri yo'naltirishni o'rganish kerak. Agar ota-ona bolani qo'rqitsa, itoatkorlikka erishish kafolatlanadi. Ammo bola psixologiyasida jarohat qoladi.

Har bir bola juda ko'p qo'rquvni boshdan kechiradi, ularning aksariyati asossiz. Ba'zi qo'rquvlar vaqtinchalik, boshqalari instinktiv, asosan tug'ma, masalan, qorong'ilik, balandlikdan qo'rqish va hokazo. Ammo ota-onalar tomonidan qo'rqitish jarayonida paydo bo'ladigan qo'rquvning bir qancha toifasi mavjud. Ba'zi vaziyatlarda, gapirish imkoni bo'lmaganda, juda tez harakat qilish kerak bo'ladi. Bunda qo'rquv yordam beradigan yagona narsa deb o'ylaymiz. Misol uchun, agar bola mashina yo'liga chiqsa, xavfliligini ta'kidlab, bu qo'rqinchli oqibatlarga olib kelishini aytish kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asrning birinchi yarmidagi mualliflarning asarlarida qo'rquv hamda fobiyalarning surunkali rivojlanish tendensiyasi mavjud bo'lib, ular simptomlarning kuchayishi va asoratlari rivojlanishiga moyil bo'ladi. Xavf tug'ilganda paydo bo'ladigan qo'rquv tabiiy va paydo bo'lishi shart bo'lgan his-tuyg'u hisoblanadi. Inson hayoti uchun xavf tug'ilganda o'zini saqlab qolish instinktining paydo bo'lishi qo'rquv hissiyoti orqali amalga oshiriladi. Qo'rquv kuchlarning to'planishi va yo'naltirilishiga sabab bo'ladi. Qo'rquv natijasida miyaning fikrlash va qaror chiqarish tezligi ortadi. Diqqat jamlanadi, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llari qidiriladi. Qo'rquvning yo'qligi xavfni baholay olmaslikdir. Xavfni tasavvur qilishning yo'qolishi, real paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni his yetmaslik bo'lib hisoblanadi.

Qo'rquv natijasida xavotir, titrash, kuchsizlik, nimjonlik va harakatsizlik kelib chiqadi. Bu holat nerv faoliyati mutanosibligining buzilishlariga olib kelib, jazavaga tushib qolish va harakat qila olmaslikni paydo qiladi. Vaziyatni to'g'ri baholay olmaslik yechimsizlik, yengilish hissi kabi hissiyotlarga sabab bo'lib, kurashishdan voz kechish qaroriga sabab bo'ladi. Jazavaga tushgan insonning holati atrofdagilarga yuqish xususiyatiga egadir. To'g'ri fikrlay olmagan odam, jazavaga tushadi va hayotini saqlab qolish hissi bilan harakatlanib "Jonimgi saqlab qol!" shiori ostida qaror chiqara boshlaydi. Bu insonlar fikrlay olmaydilar aksincha, hayotini saqlab qolish instinkti tomonidan boshqarilib, o'z harakatlariga javob bera olmaydilar.. Vahimaga qarshi borish qiyin vazifa bo'lib, faqatgina juda kuchli irodasi bor insonlarning qo'lidan keladi. Bu insonlar nafaqat o'z harakatlarini boshqara oladilar, balki qiyin vaziyatlarda boshqalarni ham boshqarishga kuchi yetarli bo'ladi.

Ijtimoiy qo'rquvni o'rgangan olimlarning fikriga ko'ra, eng samarali yondashuv kognitiv-xulq-atvor yo'nalishi bo'lib chiqdi (J. Bek, J. Birj, J. Volpe, G.V. Zalevskiy, A. Rush, A. Ellis, G. Emeri va boshqalar) shaxs tomonidan motivatsion-ehtiyot keskinligi asosida voqelikni to'g'ri tashkil etish ijtimoiy fobiya o'rganish uchun adekvat uslubiy asosni shakllantirishga imkon beradi (E.Yu. Artemyeva, X. Brush, J. Kelly, V.F. Petrenko, I. Rixberg, A.G. Shmelev va boshqalar), degan fikrni bildirib o'tganlar.

Shu bilan birga, ijtimoiy fobiya shakllanishiga oilaning ta'siri va oila ichidagi o'zaro munosabatlarning turli jihatlarini amalda o'rganilmagan. Bundan tashqari, ota-onaning bola tarbiyasidagi ahamiyati va ularning bolaning turli shaxsiy fazilatlarini

shakllantirishdagi roli, shu jumladan shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini belgilaydigan roli bir necha bor quyidagi olimlar tomonidan aytib o'tilgan (L.S. Vegotskiy, K. Rojers, K. Horney, A.A. Leontiev, A.N. Leontiev, I.S.Kon,

B.G. Djilmatin, D. Vinnikot, D.B. Elkonin, A.Ya. Varga, A.G. Asmolov, J. Kagan, A. Fire, S. Kneppi, K. Grüner, P. Muris, X. Merkelbax, S.X. Spens, V. Bronfenbrenner, M.I. Lisin). Bu shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ota-onalar tomonidan bolaga ma'lum bir fikrni yetkazish, bu uning shaxsiyatini shakllantirish, rivojlanish uchun psixologik makonni yaratishi zarur. Qiyin vaziyatlarda o'zini tutish, hissiy kontekstni va tegishli hissiy munosabatni tan olish ijtimoiy fobiya shakllanishiga hissa qo'shishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bola tarbiyasi va bola ongining rivojlanishi uzoq jarayon bo'lib, ota onalardan sabr va qanoatni talab qiladi. Qo'rquvni tarbiyaviy vosita sifatida muntazam ravishda qo'llash bolaning kattalar bilan suhbatdan qochishi va jur'at yetishmasligiga olib keladi. Endi o'ylab ko'ring, nega hozirgi davrda muloqot, notiqlik kurslari va motivatorlarga ehtiyoj ko'p? Bular bir paytdagi qo'rquv bergan ruhiy jarohatning asorati.

Qo'rquv o'z ichiga psixologik travmadan tashqari, bola bir qator yashirin kasallik komplekslarini oladi. Bu uning keyingi rivojlanishini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Hatto balog'at yoshida ham o'qish va ishdagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Qo'shimcha tarzda atrofdagilarga ishonchsizlik hissi ortadi: birinchi navbatda ota-onalarga, keyin esa butun dunyoga. Qo'rquv natijasida enurez duduqlanish yoki tirnoq tishlash kabi reaksiyalar (kasalliklar) paydo bo'ladi. Bular esa tabiiyki shunday "tarbiya" metodlari natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Краткий психологический словарь / Сост. Л.А. Карпенко; под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М.: Политиздат, 1985. 431 с.
2. Юнг К.Г. Сознание и бессознательное / Пер. с нем. В. Бакусева. 2-е изд. М.: Академический Проект, 2009. 188 с.
3. Шнейдер Л.Б. Семейная психология. М: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2006. 768 с.
4. Шапиро Б.Ю. Половое воспитание, сексуальное образование и подготовка к семейной жизни // Российская энциклопедия социальной работы. В 2-х т. / Под ред. А.М. Панова, Е.И. Холостовой. М.: Институт социальной работы, 1997. Т. 2. 436 с.
5. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2002. 512 с.
6. Юркевич Н.Г. Советская семья. Функции и условия стабильности. Мн.: Изд-во БГУ, 1970. 208 с.
7. Курбанова Д. Келинлар оилага мослашувининг этнопсихологик хусусиятлари. Автореф.дис. ... психология фан. номзоди: 19.00.05. – Тошкент, 2012. – 24 б.
8. Самаров Р.С. Социальные и этнопсихологические особенности супружеских конфликтов в таджикской семье. Автореф. дисс.канд. психол. наук. – Ташкент, 1997 – 19 с.
9. Ковалев С.В. Психология современной семьи. М.: Просвещение, 1988. 208 с.
10. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. СПб.: Питер, 2008. 656 с.

11. Черняк Е.М. Социология семьи. М.: Дашков и Ко, 2004. 238 с.
12. Вишневский Ю.Р. и др. Комплексная поддержка молодой семьи: Курс лекций. В II ч. Ч. 1: Молодая семья: сущность и типы, проблемы, тенденции и перспективы. Екатеринбург: УрФУ, 2011. 220 с.
13. Ярыгина Н.Ю. Мотивационно-смысловая готовность к семейной жизни: Дис. ... канд. псих. наук. М.: Психолог. ин-т Рос. акад. образования, 2007. 139 с.
14. Камнева Н.А. Мотивация вступления в брак и ее влияние на конфликтные ситуации будущей молодой семьи // Вестник ТГУ. 2009. Вып. 2 (70). С. 271-276.
15. Бушкова-Шиклина Э.В., Митягина Е.В., Шу-майлова С.В. Студенчество Вятки: особенности ценностей и социальной активности: результаты социологического исследования. Киров: Изд-во ВятГГУ, 2010. 99 с.